

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA
TAYYORLASHDA OILA VA MAKTABHAMKORLIGI**

G.A.Mamadaliyeva

Namangan Xalqaro Universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarini maktab ta'limga tayyorlashda oila va maktabhamkorligi ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar; Ota-onal, maktab, oila, maktabhamkorligi, tarbiyalash, insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko'lamlı islohotlar amalgalashirilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalgalashirilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya olishi masalasi davlat darajasidagi dolzarb masalaga ayylandi. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarini maktab ta'limga tayyorlashda oila va maktabhamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishslash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarini tarbiyalashda ijobjiy natijalarga erishish mumkin.

Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega, u insoniyatni ma'naviyat va ma'rifatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boruvchi oljanob g'oyadir. Shu sababli ham barkamol avlod va uni tarbiyalash muammosining echimlari azal-azaldan xalqimizning ezgu-orzusi bo'lib kelgan.

Oila shaxs tarbiyasida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda eng muhim vazifalarni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, mshaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun umr davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oilaturli ijtimoiy maqomlarniegallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishga yordam beradi. Bolalar tarbiyasidagi muntazamlilik va izchillikning asosiy sharti oila va bolalar MTTi o'rtasidagi muntazam aloqa o'rnatishdir.

Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning taqdirlari uchun yuksak ma'suliyat hissini xam talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir.

Oilada tarbiyani xar tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma'naviy tarbiya bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qaxramonlari xaqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan xakidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jixatlari shakllanadi-ki, boshqa xech qaysi tarbiya ob'ekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, raxm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o'rni bor. Oila davrasida ko'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va taxlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va xakozolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jixatlardir.

Ota-onalar voyaga etayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur.

Bola hayotida mexnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruxida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan xamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yollarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustaxkamlash maktabgacha ta'limga tashkiloti hodimlari pedagogik omillar, bu soxada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muxim vazifasidir. Bolalar tarbiyasidagi muntazamlik va izchillikning asosiy sharti oila va bolalar MTTi o'rtasida muntazam aloqa o'rnatishdir.

Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma'suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki, boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o'rni bor. Oila davrasida ko'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolaning estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir.

Maktabgacha yoshidagi bolaning muktab ta'limga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabtalarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani bog'chadayoq yoki uydayoq muktab ta'limga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lмаган bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish lozim.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlarining eng birinchi vazifasi – bolalar MTTi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari va oilasining boshqa a'zolari ongida bola tarbiyasida oila birinchi darajali ahamiyatga egaligi va xar bir oila bolalarining faollashuvida oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning birligiga erishilgandagina kutilgan natijaga olib kelishiga churish ishonch uyg'otishdir. Bolalar MTTi ota-onalarda pedagogik bilimlar asosini yaratadi. Ularda tarbiya haqidagi fanga qiziqish uyg'otadi. O'z bilimlarini doimo kengaytirish istagini va unga intilish hissini uyg'otadi.

Keyinchalik esa maktab pedagogik umumta'limga kirishib ketish hissini uyg'otadi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif-tarbiyani xar tomonlama, jumladan ma'naviy, ahloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyalari birgalikda olib borilib bola maktabga chiqariladi. Bola maktabgacha ta'li tashkilotida olgan bilimlarini maktabda davom ettirishga shundagina qiyalmaydi.

Bolalarni bilimlarni egallab olishlari, ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffakiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mexnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalar MTTi xodimlaridan ota-onalar va oila bilan xamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz.

Ota-onalar va oila bilan yakkama-yakka ishlash. Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suxbat o'tkazish, ularga maslaxat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi xayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruxiy va umumiyligi majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol javob kechalari. Ko'rsatmali ishlar – ishning bu turi: ko'rgazmalar uyuştirish, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish.

Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish.

Ota-onalarga, pedagogik ta'lif berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib, bolalar maktab ta'limga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar xaqida gapirar ekanmiz, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan xamkorligini mustaxkamlash. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarining ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka xolda ishlash shakllarini moxirlik bilan qo'shib olib borish, keng axoli ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR;

1. Safarov O. Oila ma'naviyati. T.: Ma'naviyat. 2009y.
2. Содикова Ш.А. Мактабгача педагогика. – Т., 2018.
3. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO 'G 'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o 'qituvchisi //Образование и инновационные

исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.

4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
6. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.
7. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.
8. Irisbayeva Y. Using "Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
9. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
10. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.
11. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
12. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.
13. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 268-270.
14. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.
15. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.